Kiyomov Abdulla Xaytaliyevich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Texnologiya va geografiya kafedrasi katta o'qituvchisi  
Termiz davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Maqola umummuhandislik fanlarini o'qitish jarayonida muhandislik oliy ta'lim muassasalari talabalarining texnologik kompetentligini shakllantirish muammosiga bag'ishlangan. Unda muhandislik oliy ta'lim muassasalarida umummuhandislik fanlarini o'qitish jarayonida texnologik kompetentlikni shakllantirishning o'rni, ahamiyati va mazmuni yoritilgan. Shu bilan birga, texnologik kompetentlikni shakllantirishning muhim tarkibiy qismlari, ta'lim jarayonini tashkil etishning asosiy tamoyillari hamda komponentlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetentlik, kompetensiya, umumkasbiy kompetentlik, texnologik kompetentlik, konstruktorlik-mexanik kompetentlik, elektroavtomatik kompetentlik, ishlab chiqarish-iqtisodiy kompetentlik, gidro-issiqlik texnikasi kompetentligi.

**Abstract:** The article is devoted to the issue of forming technological competence of students in engineering higher education institutions during the teaching of general engineering disciplines. It highlights the role, significance, and content of developing technological competence within the educational process. In addition, the main components of technological competence formation, the principles of organizing the educational process, and their specific characteristics are analyzed and clarified.

**Key words:** competence, competency, general professional competence, technological competence, design and mechanical competence, electro-automatic competence, production and economic competence, hydro-thermal engineering competence.

**Аннотация:** Статья посвящена проблеме формирования технологической компетентности студентов инженерных высших учебных заведений в процессе преподавания общеинженерных дисциплин. Изложены положения о роли, значении и содержании формирования технологической компетентности в образовательном процессе. Также раскрыты основные составляющие формирования технологической компетентности, принципы организации образовательного процесса, а также его ключевые компоненты и их специфические характеристики.

**Ключевые слова:** компетентность, компетенция, общепрофессиональная компетентность, технологическая компетентность, конструкторско-механическая компетентность, электроавтоматическая компетентность, производственно-экономическая компетентность, гидротеплотехническая компетентность.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-iyunda muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimi oldiga qator ustuvor vazifalar belgilab berildi, jumladan, "to'liq dual ta'lim tizimiga o'tish, dekanatlarning talabalarga xizmat ko'rsatish funksiyalarini to'liq raqamlashtirish, "Registrator ofis" tizimiga o'tish hamda ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini dunyoning yetakchi mamlakatlari hisoblangan Germaniyaning Drezden texnika va Yaponiyaning Sukuba universitetlari dasturlariga moslashtirish" vazifasi yuklatildi <sup>[1]</sup>.

Maqolada muhandislik oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim jarayonlarida bo'lajak muhandislar kasbiy kompetentligi tashkil etuvchilari va o'rganiladigan fanlar o'rtasidagi bog'lanishlarning tuzilishi taqdim etilgan. Bunda muhandislik oliy ta'lim muassasalarida umummuhandislik fanlarini o'qitish jarayonida talabarlarda texnologik kompetentlikni shakllantirish jarayoni asoslab berilgan.

Tadqiqotning maqsadi – muhandislik oliy ta'lim muassasalarida umummuhandislik fanlarini o'qitish jarayonida talabarlarda texnologik kompetentlikni shakllantirish.

Qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalar hal qilinishi lozim:

- kasbiy kompetentlikning tashkil etuvchilari va muhandislik oliy ta'lim muassasasida o'rganiladigan umummuhandislik fanlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarning tuzilmasini aniqlashtirish;
- umumkasbiy kompetentlik va texnologik kompetentlik tuzilmasining tarkibi va mazmunini aniqlab olish.

Muammo ustida tadqiqotlar olib borgan olimlarning izlanishlarida “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining semantikasi turli xil tavsiflarni o'zida mujassam etgan. Masalan, I. V. Chelpanovning tadqiqotlarida “kompetensiya” tushunchasiga “tayyorgarlik” sifatida ta'rif berilgan; S. Ya. Batishevning tadqiqotlarida esa “qobiliyat” deb ta'rif berilgan; E. F. Zeer esa (bilim, ko'nikma, tajriba) mazmun sifatida tavsif bergan; V. A. Bolotov va V. V. Serikovlar tomonidan esa “kompetentlik” tushunchasiga shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishi deb ta'rif berilgan; Yu. G. Tatur esa shaxsning fazilati deb ta'rif bergan va hokazo.

Shu bilan bir qatorda I. A. Zimnyaya “kompetensiya” tushunchasiga shaxsning “ichki salohiyati” deb tavsif bergan; o'zining yana bir tadqiqotida E. F. Zeer “kompetensiya” tushunchasini mutaxassisning huquq va majburiyatlari to'plami deb tavsiflagan; o'zining yana bir ilmiy ishida A. V. Xutorskaya “kompetensiya” tushunchasiga o'z sohasida yuqori darajada sifatli va samarali faoliyat yuritishi uchun talabning egallagan bilimlariga qo'yiladigan talablar deb tavsif bergan.

Shuni aytish mumkinki, tahlil qilingan tavsif va ta'riflarning turlicha talqinlari, birinchi navbatda, uslubiy va nazariy yondashuvlarning xilma-xilligi, shuningdek, mualliflarning ushbu hodisaning mohiyatini tushunishini aks ettiruvchi turli sohalaridagi mutaxassislar faoliyati tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq.

Zamonaviy tadqiqotlarni o'rganib chiqish bizga “kompetentlik” – bu kompetensiyalarga ega bo'lish, “kompetentlik” esa mutaxassisning shaxsiy fazilatlarini majmuasi sifatida qabul qilinishi hamda insonning o'quv jarayonida olingan bilim, ko'nikma va malakalarga asoslangan faoliyat bilan shug'ullanish qobiliyati va bu jarayonlarga tayyorligi tushuniladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogika fanida kompetensiyaviy yondashuv masalasi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ushbu yondashuv ta'lim natijalarini shaxsning amaliy faoliyatga tayyorligi orqali baholashni nazarda tutadi. I. A. Zimnyaya kompetensiyani shaxsning ichki salohiyati va faoliyat jarayonida namoyon bo'luvchi sifat sifatida izohlaydi, V. S. Bezrukova esa pedagogik jarayonni tizimli tashkil etish orqali kompetentlikni shakllantirishni ta'lim samaradorligining muhim sharti sifatida ko'rsatadi. Ushbu yondashuvlar muhandislik ta'limida ham metodologik asos vazifasini bajaradi.

Kasbiy va umumkasbiy kompetentlikning mazmuni va tuzilmasi L. V. Lvov hamda Yu. G. Tatur tadqiqotlarida keng yoritilgan bo'lib, ular kompetentlikni mutaxassisning kasbiy faoliyatni samarali bajarishga tayyorligi bilan bog'laydi. V. P. Kosyrev uzluksiz kasbiy tayyorgarlik tizimida metodik yondashuvlarning ahamiyatini asoslab, kompetensiyalarni bosqichma-bosqich shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. N. A. Muslimov tadqiqotlarida esa kasb ta'limi jarayonida kompetensiyalarning integrativ tabiati ochib berilib, ularning o'zaro bog'liqligi muhim ekanligi asoslangan.

Muhandislik ta'limida texnologik kompetentlikni shakllantirish masalalari Yu. N. Semin va A. X. Kiyomov tadqiqotlarida alohida yoritilgan. Yu. N. Semin umumkasbiy tayyorgarlik mazmunini integratsiyalash orqali texnik mutaxassislarni tayyorlash samaradorligini oshirishni asoslaydi, A. X. Kiyomov esa texnologik kompetentlikni rivojlantirishda fanlararo yondashuv va amaliy faoliyatning muhimligini ko'rsatadi. Shuningdek, N. Gaipova tomonidan bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati qayd etilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Demak, talabalar kasbiy tayyorgarligining samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlaridan biri – bu kompetentli yondashuv bo'lib, unga ko'ra talabning kelajakdagi faoliyatga tayyorlik mezonlari oliy ta'lim amaliyotidagi kompetentlik va kompetensiyalar orqali belgilanadi. V. I. Baydenkoning fikriga ko'ra, kompetentli yondashuv bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash uchun davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim natijalarini model-lashtirish deb tushunilishi kerak.




Kompetentlilik modeli – bu ta'lim jarayonlarida erishilgan natijalarining grafik tasviri bo'lib, u butun ta'lim jarayonini tizimli va yaxlit tarzda aks etadi;

- talaba-bitiruvchining tegishli kompetensiyalarning shakllanganlik natijalarini namoyon eta olishga tayyorligi alomatlarini orqali ifodalanishi;
- o'rganilayotgan kompetensiyalar tarkibiy tuzilmasini aniqlash.

Mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirish modelini yaratish uchun tadqiqot predmetining o'ziga xos xususiyatlari, muhandislarni kasbiy tayyorlash mohiyatini hamda kasbiy kompetentlikning tashkil etuvchilari va davlat ta'lim standartlari tomonidan belgilangan fanlar o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlashtirish zarur bo'ladi (1–2-rasmlar). Tuzilmani yaratishda tayyorlanadigan muhandis mutaxassislarga qo'yiladigan talablar va ularni tayyorlashga qaratilgan davlat ta'lim standartlari asos qilib olingan. Bu esa o'z navbatida kasbiy tayyorgarlik maqsadlarini hamda muhandislik oliy ta'lim muassasasi mutaxassisi, bitiruvchisi ega bo'lishi lozim bo'lgan kompetentlik va kompetensiyalar to'plamini aniqlash imkonini berdi.

Faoliyatli yondashuv nuqtai nazaridan yakuniy maqsad – yetuk mutaxassisni tayyorlash hamda kasbiy kompetentlikni shakllantirish.



1-rasm: Kasbiy kompetentlik tas'hhil etuvchilarining Muhandislik oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlar bilan bog'liqlik tuzilmasi.

Muhandislik oliy ta'lim muassasasi muhandislik mutaxassisliklari bitiruvchilarining kasbiy kompetentliklari deganda kasbiy ta'lim dasturida ko'zda tutilgan kasbiy kompetentliklar to'plami tushuniladi.

U o'zida quyidagi kompetensiyalarni mujassam etadi: asosiy, tayanch va maxsus kompetensiyalar. Mazkur kasbiy kompetensiyalar muhandisning turli vazifalarni hal qilishdagi faoliyatini tartibga soladi hamda kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlab beradi. Ular ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan fanlar blokini o'rganish orqali shakllanadi, bu esa o'z navbatida kasbiy vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan turli xil kompetensiyalar, integrativ kasbiy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Kompetentlik va kompetensiyalarning mazmuni va darajasiga asoslangan tavsifi bo'yicha mavjud talqinlarni umumlashtirish bizga quyidagi fikrlarni bildirishga imkon beradi: ta'lim olish natijasida kasbiy kompetentlik shakllanishi, ya'ni talaba kompetentli mutaxassisga aylanishi uchun uch darajali kompetensiyalar to'plamini o'zlashtirish kerak: asosiy, tayanch va maxsus [4, 7]. Barcha uch turdagi kompetensiyalar o'zaro bog'liq va bir vaqtda rivojlanadi.

Asosiy kompetensiyalar har qanday kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lib, shaxsning dinamik o'zgaruvchan muhandislik bilimlaridagi muvaffaqiyati bilan bog'liq va birinchi navbatda kasbiy muammolarni hal qilish qobiliyatida aks etadi. Asosiy kompetensiyalar ma'lum bir kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi (ishlab chiqarish-texnologik, loyihalash-konstruktorlik va boshqalar). Maxsus kompetensiyalar kasbiy faoliyat muayyan sohasining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Maxsus kompetensiyalar maxsus fanlar va ixtisoslik fanlarini o'rganishda mutaxassislik fan sohasidagi asosiy va tayanch kompetensiyalarni moddiylash-tirish deb hisoblash mumkin.

Mazkur talabga va muhandislik oliy ta'lim muassasasida o'rganilayotgan predmetning fan xususiyatlariga muvofiq model ishlab chiqiladi. Ta'lim jarayonini modellashtirishning majburiy talabi – muhandislik oliy ta'lim muassasalari mutaxassisliklari talabalarida texnologik kompetentlikni shakllantirish tizimini ta'minlovchi omilni tanlashdir. U "texnologik kompetentlikning barcha tarkibiy qismlarini o'zaro bog'lagan holda loyihani yaxlit yaratishi kerak. Tizimni tashkil etuvchi komponent – bu boshqa barcha tarkibiy qismlarni yaxlit birlikka birlashtira oladigan, ularning rivojlanishini maqsad qilib qo'yadigan va rag'batlantiradigan komponentdir" [2].

Taqdim etilayotgan modelda umumkasbiy kompetensiyalarga asosiy urg'u beriladi, chunki ular nafaqat talabaning ichki rivojlanishi sohasida o'z-o'zini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, balki o'zining kasbiy faoliyati jarayonida doimiy o'z-o'zini rivojlantirish uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, muhandislik oliy ta'lim muassasasi talabalarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishdan maqsad bir qator vazifalardan iborat bo'lib, unda tizimni tashkil etuvchi muhim tarkibiy qismlardan biri talabalarning umummuhandislik tayyorgarligi jarayonida amalga oshiriladigan umumkasbiy kompetentlikni shakllantirishdir. Taklif etilayotgan sxema (1-rasm) kasbiy kompetentlikni shakllantirishda umumkasbiy kompetentlikning tizimni shakllantiruvchi o'rnini yaqqol namoyon etadi.

Xorijiy olimlarning tadqiqotlarida tayanch kompetensiyalar va kompetensiyalarning sifat va miqdoriy tavsiflari sezilarli farqlarga ega. Tadqiqotimizda "umumkasbiy kompetensiya" tushunchasining ta'rifiga oydinlik kiritish uchun A. V. Xutorskiy [7], V. I. Baydenko [1], L. V. Lvov [4] va boshqalarning ishlari atroflicha o'rganib chiqildi.

Shuni ham aytib o'tish lozimki, L. V. Lvovning tadqiqotlarida "umumkasbiy kompetentlik – bu mutaxassisning asosiy kasbiy faoliyat turlarini amalga oshirish uchun zarur, muayyan fanlar va faoliyatning xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan kompetensiyalar to'plami" deb ta'rif berilgan. Tayanch kompetensiyalar mutaxassis maxsus kompetensiyalarining o'zgarmas qismidan iborat bo'lib, makro va mikro darajadagi asosiy bilim va ko'nikmalar tizimlariga hamda mutaxassisning amaliy faoliyati uchun zarur bo'lgan kasbiy harakatlarning umumlashtirilgan asosiy usullariga tayanadi [4].

"Umumiy kasbiy kompetensiya"ning ishchi ta'rifini aniqlashtirishda va ushbu kompetensiyaning tarkibiy qismlariga yanada oydinlik kiritishda Yu. G. Taturning tushunchaga qarashlari asos qilib olindi. Uning fikriga ko'ra, umumiy kasbiy kompetensiya – bu quyidagi tashkil etuvchilarni o'zida mujassam etgan tayyorgarlik darajasi:

- ushbu sifatni namoyish etish uchun ijobiy motivatsiya, faoliyat usulini tanlashga asoslangan bilim;
- o'zlashtirilgan bilimlarga tayangan zarur harakatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'nikmalari hamda kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur shart bo'lgan shaxsiy kasbiy muhim fazilatlar [6].

Tahlil qilingan ta'riflarga asoslanib, biz umumkasbiy kompetensiya bo'lajak muhandisning bilim, ko'nikma va kasbiy rivojlangan muhim shaxsiy fazilatlarini asosida faoliyat ko'rsatishga tayyorligining asosiy, integrativ xususiyati ekanligini aniqlashtirdik.

Umumiy qilib aytganda, umumkasbiy kompetensiya mutaxassislik fanlarini yanada chuqur o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, bu esa mutaxassisga mehnat bozoriga moslashish va oliy ta'limdan keyingi bosqichlarda ta'lim olish imkonini beradi. Shu sababdan, umumkasbiy kompetentlikni muhandislik oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish mezonlaridan biri sifatida belgilash maqsadga muvofiqdir.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy kasbiy ta'lim tizimida umumkasbiy kompetensiyalar oraliq xususiyatga ega. U bir tomondan asosiy kompetensiyalar va boshqa tomondan maxsus kompetensiyalar o'rtasidagi pozitsiyani egallab, ma'lum bir funksiyalarni bajarish uchun mo'ljallangan.

Umumkasbiy kompetentlikni shakllantirishda umummuhandislik fanlarining xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ta'lim jarayonlarini politexnikalashtirishga imkon yaratilishi kerak;
- ta'lim oluvchilarda maxsus bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish;
- kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan fikrlashning har xil turlarini rivojlantirish (texnik, fazoviy va boshqalar);
- talabalarga texnika va texnologiyalarda qo'llaniladigan tabiiy va aniq fanlar qonuniyatlarini chuqur tushunishga yordam berish;
- talabalarda ilmiy dunyoqarashning shakllanishiga va ularda ilmiy-texnik tasavvurning rivojlanishiga hissa qo'shish;



- maxsus fanlarni chuqur o'rganishni ta'minlash;
- muhandislarning kasbiy tayyorgarlik qamrovini kengaytirish;
- o'z kasbiy mahoratini yanada rivojlantirish uchun zamin yaratish, kasbiy kompetentlikning shakllanishini ta'minlash.

Demak, umumkasbiy kompetensiyalarning maqsadi aksariyat ishlab-chiqarish muammolarini bartaraf etishda mexanizmlar, mashinalar va mashina detallarining yangi konstruksiyalarini ishlab chiqishga qodir, har xil foydalanish sharoitlarida mahsulotlarni tahlil va nazorat qilish qobiliyatlariga, tayanch va maxsus bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan, texnik savodxonligi yuqori bo'lgan mutaxassislarni tarbiyalashdan iborat.

I. A. Zimnyaya tomonidan kompetensiyaga berilgan ta'rifga asoslanib, uni mutaxassisning "ba'zi bir ichki salohiyati, yashirin psixologik yangilanishlar (bilimlar, g'oyalar, dasturlar, harakatlar va hokazo), keyinchalik u shaxs uchun dolzarb bo'ladi va uning faoliyatlarida namoyon bo'luvchi kompetensiyalarida aks etadi", shunga ko'ra umumkasbiy kompetentlikning tarkibiy tuzilmasi aniqlashtiriladi. Shunga mos ravishda N. Yu. Semin-ning tadqiqotlari asos qilib olindi, u muhandislarda texnologik kompetentlikni shakllantirish uchun zarur bo'lgan umummuhandislik fanlari siklini ishlab chiqqan<sup>[5]</sup>.

Umummuhandislik fanlari – bu davlat ta'lim standartlarining tarkibiy qismiga kiritilgan asosiy o'quv fanlari to'plami bo'lib, ularning mazmuni fanlararo xarakterdagi faoliyatning o'ziga xos turiga qaratilgan va mutaxassislarni funksional tayyorlashning invariantligini ochib beradi. Binobarin, umumkasbiy kompetentlikni shakllantirish kasbiy va davlat standartlarining me'yoriy talablarini amalga oshirish jarayoni bo'lib, muhandislik oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarining vertikal va gorizontal harakatchanligini birlashtirishga yordam beradi.

O'rganilgan tadqiqotlar, olimlarning fikrlari va me'yoriy hujjatlar tahlilini hisobga olgan holda, bo'lajak muhandislarning asosiy umumkasbiy kompetentligining quyidagi o'zaro bog'liq kompetensiyalari aniqlandi: loyihalash-mexanik kompetentlik, texnologik kompetentlik, gidro-issiqlik texnikaviy kompetentlik, elektroavtomatik kompetentlik, ishlab-chiqarish va iqtisodiy kompetentlik (2-rasm).

Mazkur tuzilmada, tizimli yondashuv kontekstidan kelib chiqqan holda, shakllangan barcha kompetensiyalar talabning shaxsiy fazilatlarini yaxlit tizimining elementlari sifatida ko'rib chiqiladi, bu yerda maqsadni belgilash asosiy hisoblanadi. Umumkasbiy kompetentlik va uning tarkibiga kiritilgan beshta kompetentlik mos ravishda qisman va butun kabi toifalar bilan tavsiflanishi mumkin.

Shu bilan birga, V. S. Lednev va V. P. Kosyrev kabi olimlarning fikrlarini ma'qullagan holda, biz kompetensiyalarning apikal va implitsit xususiyatlari haqida aytib o'tishimiz mumkin. Bir tomondan, har bir kompetensiya alohida xususiyatga ega va alohida o'rganilishi mumkin bo'lgan yaxlit hodisadir, boshqa tomondan, kompetensiyalar amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lum bir "yuqori tizim"ning integrativ elementi sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin<sup>[3]</sup>.

## XULOSA VA TAKLIFLAR


Keltirib o'tilgan ma'lumotlarga asoslanib, umumkasbiy kompetensiyalar umummuhandislik fanlarini o'rganish jarayonida, ya'ni birinchi bosqichdan to'rtinchi bosqichgacha shakllanadi, degan xulosaga kelish mumkin. Muhandislik oliy ta'lim muassasasida ta'lim olishning dastlabki kunlaridan boshlab bo'lajak muhandislar umummuhandislik blokidagi fanlarni o'rganadilar. Demak, nazariya va amaliyotdagi ushbu fanlarning hajmi mutaxassisga qo'yiladigan zamonaviy talablarni maqsadli va bosqichma-bosqich amalga oshirishga, ya'ni bo'lajak muhandislarning umumkasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga imkon beradi.

Umuman olganda, texnologik kompetentlik deganda bitiruvchining ishlab-chiqarish va texnologik faoliyatga tayyorlik darajasini aks ettiruvchi motivatsion, kognitiv va shaxsiga yo'naltirilgan komponentlarning o'zaro uyg'unlashuvi ko'rinishidagi bo'lajak muhandislarning sifati tushuniladi. Texnologik kompetentlikning mazmuni muhandislarning eng kam vaqt va resurslarni talab qiluvchi, eng samarali va tejamkor ishlab-chiqarish jarayonlarini tanlab olish va amalda qo'llash uchun zarur bo'lgan bilimlari va ko'nikmalarida namoyon bo'ladi.

Demak, taqdim etilgan ma'lumotlar asosida umummuhandislik fanlarini o'qitish jarayonida muhandislik oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik kompetentlikni shakllantirish muammosi bo'yicha quyidagi umumlashtirishlarni keltirish mumkin.

Texnologik kompetentlik keng ma'noda umumkasbiy kompetentlik tushunchasining integratsiyalashgan o'lchov birligining tarkibiy elementlaridan biri bo'lib, u esa o'z navbatida mutaxassis kasbiy kompetentligining ierarxik darajasiga asoslanadi.

Hozirgi kunga kelib "umumkasbiy kompetentlik" tushunchasi yanada dolzarblik kasb etmoqda. Bu esa o'z navbatida muhandislik oliy ta'lim muassasalari talabalarida umummuhandislik fanlarini o'qitishda umumkasbiy kompetentlikning muhim tashkil etuvchilaridan biri bo'lgan texnologik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish naqadar muhim ekanligini ko'rsatib o'tadi.



**2-rasm: Muhandislik oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining (muhandisning) umumkasbiy kompetensiyasi tuzilmasi**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-iyundagi "Muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqi". <https://president.uz/oz/lists/view/7333>.
2. Безрукова В.С. Педагогика. – Свердловский инж. пед. ин-т, 1993. – 320 с.
3. Гаипова Н. Совершенствование профессионально-проективной деятельности будущего педагога // Вопросы гуманитарных наук. – №4 (48). – Россия, Москва, 2010. – С. 175–176.
4. Зимняя И.А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентного подхода в образовании: труды методологического семинара / И.А. Зимняя. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 42 с.
5. Kiyomov A.X. Bo'lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Nukus, 2025.



6. Косырев В.П. Непрерывная методическая подготовка педагогов профессионального обучения. – М.: Изд-во АНО "СПО", 2006. – 348 с.
7. Львов Л.В. Учебно-профессиональная компетентность: сущность, содержание и оценка: монография. – ЧГАУ, 2006. – 133 с.
8. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фан. докт. дисс. автореферати. – Тошкент, 2007. – 46 б.
9. Семин Ю.Н. Теория и технология интеграции содержания общепрофессиональной подготовки в техническом вузе: дис. ... д-ра пед. наук. – Ижевск, 2001.
10. Татур Ю.Г. Компетентность в структуре модели качества подготовки специалиста // Высшее образование сегодня. – 2004. – №3. – С. 20–26.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.